XVI asrda Xiva xonligida aholining etnik, madaniy va til jihatidan bir-biridan farq qiluvchi guruhlar mavjud edi. Qaysi qatorda 3-guruhga kiruvchi xonlik aholisi to'g'ri ko'rsatilgan?
A) turkman qabilalari
B) Dashti Qipchoqdan ko'chib kelgan qabilalar
C) Qadimgi Xorazmliklarning bevosita avlodlari
D) Qoraqalpoq urug'lari
761. 1.3-2 file-» 77 - 2 - - (400735)
Xiva tarixshunosligi maktabiga kim tomonidan asos solindi?
A) Munis **B) Abulg'ozixon** C) Ogahiy
D) Muhammad Rizo Ohund
762. 1.3-2 file-» 77 - 2 - - (400736)
Muzahhib bu - ...
A) ekin dalalarini sug'oruvchi.
B) xumdonda g'isht pishiruvchi.
C) oltin suvini yurituvchi.
D) imorat peshtoqiga bo'yoq bilan bezak soluvchi.
763. 1.3-2 file-» 77 - 2 - - (400737)
1822-yilda Xiva xonligiga qo'shib olingan hududni aniqlang.
A) Shimoliy Xuroson B) Kichik juz xonligi
C) O'rta juz xonligi **D) Marv shahri**
764. 1.3-2 file-» 77 - 2 - - (400738)
Qaysi hukmdor davrida Xiva xonligida nufuzli amaldorlardan iborat devon tuzilgan?
A) Olloqulixon B) Rahimqulixon
C) Muhammad Rahimxon I D) Eltuzarxon
765. 1.3-2 file-» 77 - 2 - - (400739)
Chibik puli bu - ...
A) begar majburiyatini o'tash haqida xabar berganlik uchun to'lanadigan haq.
B) yaylov nazoratchisiga to'lanadigan haq.
C) xazinachiga to'lanadigan haq.
D) ommaviy ishlarda qatnashishdan ozod etilgani uchun to'lanadigan haq.
766. 1.3-2 file-» 77 - 2 - - (400740)
XIX asr birinchi yarmida Xivada faoliyat ko'rsatgan masjidlar miqdorini aniqlang.
A) 22 ta B) 19 ta **C) 17 ta** D) 34 ta
767. 1.3-2 file-» 77 - 2 - - (400741)
Qoraqalpoqlarning Xiva xonligiga bo'ysundirilishi nechanchi yillarda amalga oshirildi?
A) 1715-1735-yy. B) 1805-1812-yy.
C) 1735-1811-yy. D) 1792-1810-yy.
768. 1.3-2 file-» 77 - 2 - - (400742)
Amir Temur va To'xtamish bilan bog'liq voqealar bayon etilgan dostonni aniqlang.
A) "Qo'blan" **B) "Edigey"**
C) "Husni Dil" D) "Mastposhsho"
769. 1.3-2 file-» 77 - 2 - - (400743)
"Unutmasman" hajviya she'ri muallifini aniqlang.
A) J. Jirov B) Turdi Farog'iy
C) Kunxo'ja Ibrohim D) Ajiniyoz
770. 1.3-2 file-» 77 - 2 - - (400744)
Berdaq qaysi she'rida yoshlarni mehnatkash xalq uchun jonini ayamasklikka da'vat etadi?
A) "Yordam ber" B) "Avlodlar"
C) "Fidoyi bo'l" **D) "Xalq uchun"**
771. 1.3-2 file-» 77 - 2 - - (400745)
Mahmud Hoji qalamiga mansub asar nomini aniqlang.
A) "Shohidi iqbol" **B) "Turkiston tarixi"**
C) "Dili g'aroyib" D) "Tarixi oli Chingiz"
772. 1.3-2 file-» 77 - 2 - - (400746)
Qo'qon xonligida bosh vazir hisoblangan mansabdor qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?
A) mingboshi B) otaliq C) inoq
D) mehtar
773. 1.3-2 file-» 77 - 2 - - (400747)
Olimxon hukmronligi davrida Andijon hokimi bo'lgan shaxsni aniqlang.
A) Umarxon B) Muhammad Alixon
C) Rahmonqulibiy D) Musulmonqul

774. 1.3-2 file-» 77 - 2 - - (400748)
 "Tutun haqi" qanday soliq turi hisoblangan?
 A) ko'chmanchi chorvadorlardan moli boshiga qarab olinadigan soliq
 B) ko'chmanchi chorvadorlardan qo'rasiga qarab olinadigan soliq
 C) zakot to'lamaydigan boylarning bekka beradigan in'omlari
 D) yangi o'tloqlarga ko'chishdan oldin xonadon boshiga bittadan qo'y bilan olinadigan soliq
775. 1.3-2 file-» 77 - 2 - - (400749)
 Nodirabegimning Maknuna taxallusida yozilgan g'azallari miqdorini aniqlang.
 A) 180 ta B) 333 ta C) 232 ta
 D) 19 ta
776. 1.3-2 file-» 75 - 3 - - (400750)
 Abdullaxon II tomonidan 1585-yil Hind sultoni Akbarshoh huzuriga yuborilgan elchilikdan maqsad nima edi?
 A) Usmoniy turklarga qarshi itifoq tuzish
 B) Eronni kuchayib ketishiga yo'l qo'ymaslik
 C) Ikki davlat ortasidagi chegaralarni belgilab olish
 D) Badaxshonning fath etilish sabablarini Akbarshohga tushuntirish
777. 1.3-2 file-» 75 - 3 - - (400751)
 XVIII asr o'rtalarida Buxoro xonligi va Afg'oniston o'rtasidagi ziddiyatlarning sababi qaysi javobda to'g'ri berilgan?
 A) ikkala tomonning Amudaryoning janubiy qirg'og'idagi o'zbeklar istiqomat qilib turgan hududlarni o'z tasarrufida saqlashga urinishlari
 B) o'sha kezlardagi Afg'oniston hukmdori Ahmadshohning yo'l qo'ygan diplomatik xatolari
 C) Buxoro xonligining mustaqil Afg'oniston davlatini qabul qila olmaganligi
 D) Afg'onistonning Buxoro xonligiga qarshi Eron shohlari bilan olib borgan aloqalari
778. 1.3-2 file-» 75 - 3 - - (400752)
 Qo'qon xonligida davlat xazinasiga tushadigan mahsulotlarni saqlovchi amaldorni aniqlang.
 A) sarkor B) daftardor C) inoq
 D) dodxoh
779. 1.3-2 file-» 74 - 8 - - (400753)
 Bobur Mirzo Samarqandni birinchi marta qamal qilganidan so'ng, oradan ikki yil o'tgach dunyo tarixida qanday voqea sodir bo'lgan edi?
 A) Hind okeaniga boradigan dengiz yo'li ochildi
 B) Amerika qit'asi kashf etildi
 C) Eronda safaviylar sulolasi hukmronligi o'rnatildi
 D) "Yengilmas armada" halokatga uchradi
780. 1.3-2 file-» 74 - 9 - - (400754)
 Quyidagi javoblarning qaysi birida tarixiy xatolik mavjud?
 A) 1451-1469-yy. - Abu Said Sulton Muhammadning g'alaba qozonishi va Movarounnahr taxtini egallashi
 B) 1469-1494-yy. - Sulton Ahmadning hokimiyati davri
 C) 1494-1495-yy. - Sulton Mahmudning hukmronligi
 D) 1493-1498-yy. - Boysung'ur Mirzoning hukmronligi davri
781. 1.3-2 file-» 77 - 1 - - (400755)
 1832-yilda Pekinda imzolangan shartnomaga muvofiq ...
 A) Qo'qon Jahongirxo'ja avlodlarini Sharqiy Turkistonga o'tkazmaslik majburiyatini oldi.
 B) Sharqiy Turkistonda savdo qiluvchi o'rta osiyolik savdogarlar to'laydigan to'lovlarni yig'ib olish huquqi Xitoyda qoldi.
 C) Sharqiy Turkistonda qo'qonlik savdogarlar faoliyati taqiqlandi.
 D) Qo'qon savdogarlarining Sharqiy Turkistonda boj to'lamasdan savdo qilish huquqi bekor qilindi.
782. 1.3-2 file-» 77 - 1 - - (400756)
 Quyidagi me'moriy obidalarning bunyod etilishi ketma-ketligi to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping.
 A) Fayzobod xonaqohi, Toqi Zargaron, Madrasai Kamol qozi
 B) Modarixon madrasasi, Fathulla qushbegi madrasasi, Madrasai Tunqotar, Mir Arab madrasasi
 C) Toqi Sarrofon, Govkushon madrasasi, Madrasai Hakim To'ra, Madrasai Mingoyim
 D) Madrasai Xonxo'ja eshon, Qosimshayx xonaqohi, Timi Kalon, Abdurahim Sadr madrasasi

783. 1.3-2 file-» 77 - 1 - - (400757)
Qoraqalpoq xonligi qaysi davlatlar bilan chegaradosh edi?
A) **Volga bo‘ylari jung‘orlari, Boshqird ulusi, Kichik juz xonligi**
B) *Buxoro xonligi, Xazar xonligi, Jung‘or xonligi*
C) *Ural bo‘yi jung‘orlari, O‘rta juz xonligi, Boshqird ulusi*
D) *katta juz xonligi, Rossiya imperiyasi, Jung‘or xonligi*
784. 1.3-2 file-» 77 - 1 - - (400758)
Qoraqalpoq xalqi shakllanishidagi asosiy qabilalar nomi to‘g‘ri ko‘rsatilgan qatorni toping.
1) xitoy, kenagas, qipchoq, mang‘it;
2) oyrat, qo‘ng‘irot, qavchin, ming;
3) qo‘ng‘irot, mo‘yten, qipchoq, kenagas;
4) mang‘it, saroy, ming, juz, xitoy
A) 1, 4 B) 2, 4 C) 1, 3 D) 2, 3
785. 1.3-2 file-» 77 - 1 - - (400759)
S.Jukovskiy qalamiga mansub asar nomi to‘g‘ri berilgan javob qatorini toping.
A) *”Inoqlar hukmdorligi”*
B) *”Xiva va xonlikning boshqa shaharlari hamda qishloqlari, savdo-sotig‘i va sanoati”*
C) **”Rossiyaning keyingi 300 yilda Buxoro va Xiva bilan aloqasi”**
D) *”Esdaliklar”*
786. 1.3-2 file-» 77 - 1 - - (400760)
”Shajarayi turk” asarining IX bobi
1) Xivaning 1510-1673-yillar oralig‘idagi ijtimoiy-siyosiy tarixiga bag‘ishlangan;
2) Xivaning XVI asr davomidagi ijtimoiy-siyosiy tarixiga bag‘ishlangan;
3) Xiva-Buxoro munosabatlariga bag‘ishlangan;
4) Xivaning 1512-1663-yillar oralig‘idagi ijtimoiy-siyosiy tarixiga bag‘ishlangan;
5) Xiva-Qo‘qon munosabatlariga, ular o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarga bag‘ishlangan
A) 1, 3 B) 1, 2, 5 C) 2, 4 D) 3, 4
787. 1.3-2 file-» 77 - 1 - - (400761)
XIX asr boshlarida Xiva xonligi hududida barpo etilgan sug‘orish tizimi - kanallar nomi to‘g‘ri ko‘rsatilgan qatorni toping.
A) *To‘g‘uzariq, Xurmo, Sarazm*
B) *Lavzan, Qilich Niyozbiy, Katta Xonobod*
C) *Davkor, To‘g‘uzariq, Qilich Niyozbiy*
D) *Lavzan, To‘g‘uzariq, Katta Xonobod*
788. 1.3-2 file-» 77 - 1 - - (400762)
”Shahar keyingi yetti yil mobaynida o‘zaro urushlar oqibatida to‘rt marta vayron bo‘ldi. Shuning uchun ham bu yerda savdogarlar juda kam, borlari ham nochor”. Ushbu so‘zlar kim tomonidan qaysi shaharga nisbatan aytilgan?
A) *N.I.Muravyov, Xiva shahri haqida*
B) *F.Beneveni, Ko‘hna Urganch haqida*
C) *A.Jenkinson, Vazir shahri haqida*
D) *G.Danilevskiy, Xiva shahri haqida*
789. 1.3-2 file-» 77 - 1 - - (400763)
”Oddiy xalq va kambag‘allar mushkul ahvolda qoldilar, kundalik yeyish-ichishdan mahrum bo‘ldilar, hatto kafan uchun mato topolmay, jonlarini xudoga topshirdilar”. Ushbu parcha qaysi asardan olingan?
A) **Muhammad Amin Buxoriy, ”Ubaydullanoma”**
B) *Muhammad Solih, ”Shayboniyнома”*
C) *Zahiriddin Muhammad Bobur, ”Boburnoma”*
D) *Mirza Muhammad Haydar, ”Tarixi Rashidiy”*
790. 1.3-2 file-» 77 - 1 - - (400764)
Quyidagilardan qaysi biri nisbatan ilgariroq bunyod etilgan?
A) *Masjidi Kalon* B) *Madrasai Jome’*
C) *Mir Arab madrasasi* D) *Toqi Sarrofon*
791. 1.3-2 file-» 77 - 1 - - (400765)
Ubaydiyning o‘zbek tilidagi devoni - . . .
A) **306 g‘azal, 435 ruboiy, 25 qit‘a, 13 tuyuqdan iborat**
B) *306 g‘azal, 354 ruboiy, 25 qit‘a, 13 tuyuqdan iborat*
C) *306 g‘azal, 534 ruboiy, 20 qit‘a, 15 tuyuqdan iborat*
D) *308 g‘azal, 432 ruboiy, 25 qit‘a, 17 tuyuqdan iborat*
792. 1.3-2 file-» 77 - 1 - - (400766)
Quyidagilardan qaysi biriga ”iftixor ul-attibo” unvonini berilgan?
A) *Kamoliddin Ibrohim* B) *Xoja Muhammad*
C) *Muhammad Mazid*
D) *Qiyomiddin Shaydo*
793. 1.3-2 file-» 77 - 1 - - (400767)
Abdullaxon II tomonidan zabt etilgan hududlar ketma-ketligi qaysi qatorda to‘g‘ri berilgan?
A) **Balx, Samarqand, Toshkent va Farg‘ona, Badaxshon, Xorazm**
B) *Samarqand, Toshkent va Farg‘ona, Balx, Badaxshon, Xorazm*
C) *Toshkent va Farg‘ona, Balx, Xorazm, Badaxshon*
D) *Balx, Badaxshon, Toshkent va Farg‘ona, Xorazm*

794. 1.3-2 file-» 77 - 1 - - (400768)
Hirot qaysi voqeadan so'ng o'zining iqtisodiy, siyosiy va madaniy markaz sifatidagi nufuzini yo'qotdi?
A) 1510-yilda, Ismoil Safaviy tomonidan egallangandan so'ng
B) 1507-yilda, Muhammad Shayboniyxon istilosidan so'ng
C) 1574-yilda, Abdullaxon II yurishidan so'ng
D) 1598-yilda, Pirmuhammad hujumidan so'ng
795. 1.3-2 file-» 74 - 12 - - (400769)
Quyidagi javoblardan qaysi birida tarixiy xatolik mavjud?
A) 1809-yilda Toshkent Qo'qon xonligiga qo'shib olindi
B) 1787-yili Troiskdan Toshkentga rus va chet el mollari keltirildi
C) 1792-yili Muhammadxoja va Azizxoja boshliq Toshkent savdo karvoni Orenburgga jo'nab ketdi
D) 1786-yil B.Ismoilov va Azizxojalar Irbit yarmarkasiga borishdi
796. 1.3-2 file-» 74 - 12 - - (400770)
1799-yilga kelib Toshkent hokimligiga qo'shib olingan hududlarni aniqlang.
A) Turkiston va uning atroflaridan Chu daryosigacha bo'lgan yerlar
B) Toshkent atroflari va Chimkent, Sirdaryo bo'ylarigacha bo'lgan yerlar
C) Xo'jand va O'ratepa viloyatlari atrofidagi hududlar
D) Chimkent, Sayram va Qo'qon xonligigacha bo'lgan hududlar
797. 1.3-2 file-» 55 - 6 - - (400771)
Xivada XIX asr birinchi yarmiga kelganda jami ... mavjud bo'lgan.
A) 2 ta xon saroyi, 6 ta tim, 20 ta karvonsaroy
B) 4 ta xon saroyi, 22 ta masjid, 15 ta madrasa
C) 2 ta xon saroyi, 17 ta masjid, 22 ta madrasa
D) 1 ta xon saroyi, 20 ta masjid, 5 ta tim, 28 ta madrasa
798. 1.3-2 file-» 74 - 13 - - (400772)
F. Berg boshchiligida Ustyurtga yuborilgan ekspeditsiyaning maqsadini aniqlang.
A) Buxoro va undan Hindistonga boradigan yo'lni ochish
B) O'rta Osiyoga boradigan yo'llarni yanada aniqroq belgilash
C) Chegara yaqinida istehkomlar barpo etish
D) Xiva xonligiga qarshi birinchi harakatni boshlash
799. 1.3-2 file-» 74 - 13 - - (400773)
Xiva xonligida "xonlar o'yini" bo'lgan davrni aniqlang.
A) XV asr oxiri XVI asr boshlarida
B) XVI asr oxiri XVII asr boshlarida
C) XVII asr oxiri XVIII asr boshlarida
D) XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida
800. 1.3-2 file-» 74 - 13 - - (400774)
Hasanbek Rumluning "Eng go'zal tarixi" asari XVI asrning birinchi yarmidagi ...
A) Qo'qon tarixiga bag'ishlangan edi.
B) Buxoro tarixiga bag'ishlangan edi.
C) Xiva tarixiga bag'ishlangan edi.
D) Toshkent tarixiga bag'ishlangan edi.
801. 1.3-2 file-» 77 - 2 - - (400775)
"Natiijat ul-atibbo" unvoniga sazovor bo'lgan shaxs nomi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?
A) Abdulhakim ibn Sulton Mahmud
B) Hakim Shahrisabziy
C) Shohali ibn Sulaymon
D) Kamoliddin Ibrohim
802. 1.3-2 file-» 77 - 2 - - (400776)
XVIII-XIX asrlarda Samarqandda faoliyat ko'rsatgan madrasalar nomi to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping.
1) Tillakori, Qozi Soqiy, Shayboniyxon;
2) Xoja Abdulg'ofur, Safed, Tillakori;
3) Nodir devonbegi, Mingoyim, Sherdor;
4) Ulug'bek, Tillakori, Sherdor, Safed;
5) Jome', Mingoyim, Ulug'bek, Sherdor
A) 1, 3, 5 **B) 1, 2, 4** C) 1, 2, 5
D) 3, 4, 5
803. 1.3-2 file-» 77 - 2 - - (400777)
"... Xiva aholisi o'zining mashaqqatli mehnati bilan cho'lu-biyobonni hosildor o'lkaga aylantirgan. Atrof hammasi ekinzor maydon. Bug'doyzor, sholipoya, uzumzor va shirin-shakar bog'. Chorvachilik ham rivojlangan." Ushbu satrlar muallifini aniqlang.
A) G. Danilevskiy B) A. Vamberi
C) N. Muravyov D) N. Ignatyev

804. 1.3-2 file-» 74 - 16 - - (702145)
Ma'lumki, 1496-yilning iyun oyida Bobur Mirzo Samarqand shahrini egallash maqsadida ittifoqchilari bilan uni qamal qilishga tutinadi. Bobur Mirzo ushbu qamalni to'xtatishining asosiy sababini aniqlang.
- A) qish yaqinlashib qolganligi tufayli ittifoqchi shahzodalar qamalni to'xtatib, yurtlariga qaytishga majbur bo'lganlar
- B) Samarqand hokimi Boysunqur Mirzo Buxoro va Xorazm hukmdorlari bilan ittifoq tuzib, katta qo'shin chaqirgan edi
- C) Bobur Mirzo va uning tog'asi, Toshkent hokimi Sulton Mahmudxon o'rtasida kuchli ixtilof paydo bo'lgan edi
- D) Samarqandda jangga o'rgatilgan 50 ta fil bo'lib, ular qamalni bartaraf etishga qodir edilar
805. 1.3-2 file-» 74 - 16 - - (702146)
O'rta asrlardagi "To'lg'ama" nima?
- A) jangning dushman qo'shinini qoq o'rtasidan zarba berish, uni ikkiga bo'lib tashlab sarosimaga solish usuli
- B) ziroatkor aholi mayda daromadlarini qo'shib, umumlashtirib olinadigan soliq turi
- C) jangning dushman qo'shini qanot qismidan aylanib o'tib, orqadan hujum qilish usuli
- D) qo'shindagi piyoda va otliq suvoriylar aralash qismlarining joylashuv tartibi
806. 1.3-2 file-» 74 - 16 - - (702147)
Shayboniyxonning davlatni iqtisodiy va siyosiy jihatdan mustahkamlash yo'lidagi dastlabki islohotini aniqlang.
- A) davlat boshqaruvida suyurg'ol tizimining joriy etilishi
- B) mamlakatda yer-suvning qaytadan taqsim qilinishi
- C) mamlakat ichidagi ijtimoiy hayotning tartibga solinishi
- D) pul tizimining tartibga solinishi
807. 1.3-2 file-» 74 - 16 - - (702148)
Shayboniy davrida xon va shahzodalar o'rtasidagi ichki munosabatlar masalasi bilan ...
- A) eshikog'aboshi lavozimidagi shaxs shug'ullangan.
- B) xon yasovuli mansabida ishlagan amaldor shug'ullangan.
- C) shug'ullangan amaldor ayg'oqchilar boshlig'i bo'lgan.
- D) faqat qo'rchiboshi lavozimidagi shaxs shug'ullangan.
808. 1.3-2 file-» 74 - 16 - - (702149)
XVIII asr boshlarida Qo'qon xonligida minglar sulolasi hokimiyat tepasiga kelmasdan avval ...
- A) Sharqiy Turkiston o'zbeklari bilan qonli urushlar olib borilgan.
- B) hokimiyatni Dashti Ashtdagi qipchoq qabilalari egallaganlar.
- C) siyosiy parokandalikka barham berilib, tinch rivojlanish pallasi boshlangan.
- D) hokimiyat Chust yaqinidagi Chodak xo'jalari qo'liga o'tdi.
809. 1.3-2 file-» 74 - 16 - - (702150)
1736-yilda Eron shohi Nodirshoh qo'shinlari 15 kun davomida qaysi shaharni va kim boshchiligida qamal qilgan?
- A) Qarshini, Rizoqul boshchiligida
- B) Termizni, Alimqul boshchiligida
- C) Samarqandni, Nodirshoh boshchiligida
- D) Buxoroni, Amir Xudoydod boshchiligida
810. 1.3-2 file-» 74 - 16 - - (702151)
Ashtarxoniylar davrida davlat tasarrufidagi yerlar harbiy qism boshliqlari, saroy amaldorlariga qanday shaklda in'om qilingan?
- A) mulki sultoniy shaklida
- B) tanho shaklida
- C) suyurg'ol shaklida
- D) mulki xoris shaklida
811. 1.3-2 file-» 74 - 16 - - (702152)
Mahmud ibn Valining "Bahr ul-asror" ("Sirlar dengizi") asarida qayerlik va nechta olim haqida ma'lumot beriladi?
- A) samarqandlik va xorazmlik 30 nafar olim haqida
- B) buxorolik va toshkentlik 26 nafar olim haqida
- C) samarqandlik va buxorolik 20 nafar olim haqida
- D) butun Movarounnahrda 60 ga yaqin olim haqida
812. 1.3-2 file-» 74 - 16 - - (702153)
Buxoro amirligida inoqning vazifasi nimadan iborat bo'lgan?
- A) amirlik hududidagi do'stona yoki dushmanlik munosabatida bo'luvchilar haqida ma'lumot yig'ish
- B) shahar fuqarolari arzlarini amirga yetkazish
- C) amirga in'om etilgan buyumlar va harbiy anjomlarni ro'yxatga olish
- D) amir farmonlarini beklardan boshqa tabaqaga yetkazish

813. 1.3-2 file-» 74 - 16 - - (702154)
XIX asr o'rtalarida Buxoro amirligi va Xiva xonligi o'rtasidagi talash yerlar joylashgan shaharlarni aniqlang.
A) Ashxobod va Chorjo'y
B) Chorjo'y va Marv C) Andxud va Hirot
D) Hirot va Marv
814. 1.3-2 file-» 74 - 16 - - (702155)
Qo'qon xonligida xususiy yer egalari nima uchun aslida yerga emas, balki undan olinadigan mahsulot hamda shu yerlarda qurilgan imoratlarga egalik qilardilar?
A) yerga egalik qilish biroz cheklangan edi
B) yerlar faqat xon va uning atrofidagi saroy amaldorlariga tegishli edi
C) mamlakatdagi butun yerlar davlatniki edi
D) yer egaligini asosan Chodak xo'jalari boshqarar edi
815. 1.3-2 file-» 77 - 3 - - (702156)
Abdullaxon II Rossiya bilan savdo aloqalarini yaxshilashga harakat qilar ekan, bu bilan qanday maqsadni ko'zlagan edi?
A) Podsho Ivan Grozniyning xonlik bilan chegaradosh Sibir hududlariga bo'lgan yurishlarini to'xtatishni rejalashtirgan edi
B) Zamonaviy qurol-yarog' masalasida Ivan Grozniydan yordam so'rashni ko'zlagan edi
C) Savdo aloqalarini yaxshilash orqali o'z davlatining siyosiy ahvolini mustahkamlashga erishmoqchi edi
D) Savdo aloqalarini yaxshilash orqali Rossiya davlati bilan harbiy ittifoq tuzmoqchi edi
816. 1.3-2 file-» 77 - 3 - - (702157)
Ashtarxoniy Abdulazizxonning taxtdan voz kechish sababini aniqlang.
A) tinimsiz urushlar, ichki ziddiyatlar va siyosiy vaziyatning izdan chiqishi
B) amirlar va beklar tomonidan suiqasd uyushtirilishi
C) Subhonqulixon mavqeining nihoyatda kuchayib ketishi
D) Abdulazizxon taxtdan voz kechmagan, uning vafoti tufayli Subhonqulixon taxtga o'tirgan
817. 1.3-2 file-» 77 - 3 - - (702158)
Ashtarxoniy Ubaydullaxonning taxtdan ketishi sababi va tafsilotini aniqlang.
A) 1711-yilda Balx uchun bo'lgan jangda u dushman tomonidan o'ldirilgan edi
B) Chodak xo'jalari tomonidan fitna uyushtirilib, o'ldirilgan edi
C) ijtimoiy-siyosiy parokandalik kuchayishi natijasida unga qarshi fitna uyushtirilib, o'ldirilgan edi
D) ijtimoiy-siyosiy parokandalik kuchayishi natijasida u taxtdan voz kechishga majbur bo'lgan edi
818. 1.3-2 file-» 77 - 3 - - (702159)
Ashtarxoniy hukmronligi davrida asosiy soliq to'lovchi raiyatni aniqlang.
1) dehqonlar; 2) dindorlar; 3) kichik amirlar; 4) chorvadorlar; 5) madrasa mudarrisleri; 6) hunarmandlar; 7) zargarlar; 8) savdogarlar.
A) 1, 3, 6, 7 B) 2, 5, 7, 8 C) 1, 4, 6, 8
D) 1, 2, 4, 7
819. 1.3-2 file-» 77 - 3 - - (702160)
Mang'it hukmdori Muhammad Rahimxon o'z hukmronligi davrida yirik yer egalari bo'lgan munosabatida qanday muvaffaqiyatga erishdi?
A) u yirik yer egalarining davlatni boshqarish ishlariga aralashuvini keskin kamaytirishga erishdi
B) u yirik yer egalaridan o'z mavqeini mustahkamlash yo'lida foydalanib, barcha bekliklarning markaziy hokimiyatni tan olishlariga erishdi
C) u yirik yer egalarining kuchayishidan qo'rqib, ularni maxsus nazorat ostiga oldi
D) u yirik yer egalari orasidan viloyat hokimlari tayinlab, ularni davlat ishlariga jalb etdi
820. 1.3-2 file-» 77 - 3 - - (702161)
XVIII asr oxiri - XIX asr boshlarida Buxoro amirligida nima uchun yuqori mehnat unumdorligini ta'minlovchi yirik mashinalashgan ishlab chiqarishdan foydalanish ehtiyoji vujudga kelmagan edi?
A) davlat hayotida iste'mol ehtiyojlari ishlab chiqarishdan ustun bo'lmagan
B) iste'mol ehtiyojlari asosan chet el mahsulotlari hisobiga qondirilar edi
C) iste'molchilarning huquqlari ishlab chiqarishga nisbatan ancha cheklab qo'yilgan edi
D) ishlab chiqaruvchilarga e'tibor past darajada edi

821. 1.3-2 file-» 77 - 3 - - (702162)
Xiva xoni Abulg'ozini topshirig'i bilan "Dastur ul-amal" asari yozilgan bo'lib, ushbu asarda ...
A) "Shajarai turk" asariga batafsil izoh berilgan.
B) **Sohibqiron Amir Temurdan Zahiriddin Muhammad Boburga qadar temuriylar shajarasi qisqacha sharhlangan.**
C) *Abulxayrxondan Abdulmo'ningacha bo'lgan shayboniylar shajarasi sharhlangan.*
D) *Afrig'iyalardan Abulg'ozixongacha bo'lgan Xiva hukmdorlari sulolasi sharhlangan.*
822. 1.3-2 file-» 77 - 3 - - (702163)
Ma'lumki, Muhammad Rahimxon I davrida bo'ysunishni istamagan yovmut qabilasi Xurosonga ko'chib ketadi. Biroq, ma'lum sabablarga ko'ra ular yana Xiva xonligi hududlariga qaytib kelib, xon tomonidan ajratib berilgan hududga joylashishga majbur bo'ladilar. Shu davrdan boshlab ...
A) **yovmut qabilasi taqdiri Xiva xonligi bilan uzil-kesil bog'lanadi va ular xonlik fuqarolari tarkibiga olinadi.**
B) *yovmut qabilalari soliqlardan ozod qilinadilar, ammo xonga ma'lum miqdorda navkar yuborishga majbur edilar.*
C) *yovmut qabilalari bilan o'zbek qabilalari o'rtasida hududlar uchun bo'lgan qonli kurashlar avj oldi.*
D) *yovmut qabilalari xonlikning tarkibiy qismiga aylangan bo'lsa-da, ularga hech qanday e'tibor berilmadi.*
823. 1.3-2 file-» 77 - 3 - - (702164)
Qanday omil Xiva xonligining Muhammad Rahimxon I davrida siyosiy barqarorligini ta'minlashga xizmat qilishi kerak edi?
A) *xonlikda asosini jangovar yovmut qabilalari tashkil etgan muntazam qo'shin saqlash va raiyatga solinadigan soliqlarni keskin kamaytirish*
B) **bo'ysundirilgan qabila zodagonlarining qabila orasidagi mavqei kuchli bo'lganligini hisobga olib, ularga yer-mulk va turli imtiyozlar in'om etilganligi**
C) *Muhammad Rahimxon I ning bo'ysundirilgan qabila boshliqlarini saroydagi boshqaruv ishlariga jalb qilganligi*
D) *bo'ysundirilgan qabila boshliqlariga turli davlat mansablarini berib, dastlabki yillarda ularni turli soliq va to'lovlardan ozod etilganligi*
824. 1.3-2 file-» 77 - 3 - - (702165)
Muhammad Rahimxon I hukmronligi davrida Xiva xonligida ...
A) *zulm va talonchilik girdobida qolgan xalq turmushi og'irlashib bordi.*
B) *siyosiy parokandalik keskinlashib, markazdan qochuvchi kuchlar faollashdi.*
C) **mamlakat siyosiy jihatdan birlashtirilib, nisbiy barqarorlik ta'minlandi.**
D) *siyosiy jihatdan qisman birlashtirilgan bo'lsa-da, qabilaviy kurashlar nihoyatda avjiga chiqqan edi.*
825. 1.3-2 file-» 77 - 3 - - (702166)
XIX asrning 20-yillarida Rossiya nima sababdan Xiva bilan munosabatlarini yanada keskinlashtirishdan o'zini tiyishga majbur bo'lgan edi?
A) *Romanovlar sulolasidagi ixtiloflar tufayli*
B) **Eron-Rossiya va Rossiya-Turkiya urushlari tufayli**
C) *Xivaning Buxoro bilan munosabatlari anchagina do'stona tus olganligi sababli*
D) *Xiva masalasida inglizlar bilan ixtilof paydo bo'lganligi sababli*
826. 1.3-2 file-» 77 - 3 - - (702167)
Xivaning qaysi hukmdorlari davrida Ichan qal'ada keng ko'lamli buyodkorlik ishlari amalga oshirilgan edi?
A) *Muhammad Aminxon, Eltuzarxon, Anushaxon*
B) **Muhammad Rahimxon I, Olloqulixon, Muhammad Aminxon**
C) *Olloqulixon, Muhammad Aminxon, Abulg'ozixon*
D) *Anushaxon, Eltuzarxon, Abulg'ozixon*
827. 1.3-2 file-» 77 - 3 - - (702168)
Shayboniylar hukmronligi davrida ko'z kasalliklarini davolashda nom chiqargan tabiblar nomi ko'rsatilgan qatorni belgilang.
A) *Xoja Muhammad, Qiyomiddin Shaydo*
B) *Muhammad Mazid, Hakim Shahrizabziy*
C) **Shohali ibn Sulaymon, Xoja Hakim**
D) *Muhammad Mazid, Abdulkhakim ibn Sulton*
828. 1.3-2 file-» 78 - 2 - - (702169)
Shayboniyxonning O'rta Osiyo shaharlarini bosib olishidagi ketma-ketlikni ko'rsating.
A) **Shohruxiya, Farg'ona, Urganch, Hirot**
B) *Samarqand, Urganch, Toshkent, Buxoro*
C) *Farg'ona, Shohruxiya, Qunduz, Urganch*
D) *Samarqand, Buxoro, Hirot, Farg'ona*

829. 1.3-2 file-» 78 - 2 - - (702170)
Shayboniyxon Movarounnahrni zabt etishga kirishganidan 10 yil o'tib ...
A) *Shayboniy Eron hukmdori shoh Ismoil bilan bo'lgan jangda halok bo'ldi.*
B) *Bobur Samarqandni uchinchi marta qo'lga kiritdi.*
C) Shayboniyxon tomonidan Xuroson zabt etildi.
D) *Bobur Mirzo Kobulga borib, u yerda hokimiyatni qo'lga kiritdi.*
830. 1.3-2 file-» 78 - 2 - - (702171)
Saripul qishlog'i yaqinidagi jangda kimlar to'qnashgan?
A) *Ubaydulla Sulton va Bobur*
B) Bobur va Shayboniyxon
C) *Najmi Soniy va Ubaydulla Sulton*
D) *Shoh Ismoil va Shayboniyxon*
831. 1.3-2 file-» 78 - 2 - - (702172)
1512-yil Ko'li Malikda Bobur shayboniylardan yengilgach, qayerga chekinadi?
A) *G'ijduvonga* **B) Hisorga** C) *Qunduzga*
D) *Qarshiga*
832. 1.3-2 file-» 78 - 2 - - (702173)
Shoh Ismoil va Shayboniyxon o'rtasidagi jang qayerda bo'lgan?
A) *Balxda* **B) Marv yaqinida** C) *Hirotda*
D) *Ray atrofida*
833. 1.3-2 file-» 78 - 2 - - (702174)
Pirmuhammadxon va qozoq xoni Tavakkal o'rtasidagi hal qiluvchi jang qayerda bo'lgan?
A) *Samarqand yaqinidagi Bog'i Shamol mavzeida*
B) Miyonqolning Uchqora mavzeida
C) *Jizzax yonidagi Sangzor darasida*
D) *Toshkentning Bo'zsuv daryosi bo'yida*
834. 1.3-2 file-» 78 - 2 - - (702175)
Shayboniy Pirmuhammadxon va Boqi Muhammad o'rtasidagi aloqaning buzilishiga nima sabab bo'lgan?
A) *Boqi Muhammadning Eron bilan pinhona aloqa o'rnatganligi*
B) Jaloir va Do'rmon qabilalarining ig'vosi
C) *Pirmuhammadxonning qozoqlardan olingan o'ljaning hammasini o'ziniki qilib olishi*
D) *Boqi Muhammadning butun hokimiyatni egallab olishga intilishi*
835. 1.3-2 file-» 78 - 2 - - (702176)
Pirmuhammadxon qozoqlarni Movarounnahr hududidan haydab chiqarganidan so'ng Toshkentga kimni hokim qilib tayinlaydi?
A) Jahongir Sultonni
~~B) Boqi Muhammadni~~ C) *Ibodulla Sultonni*
D) *Abdulaminni*
836. 1.3-2 file-» 78 - 2 - - (702177)
Abdullaxon II Beklarsoy darasidagi qadimgi to'g'on qoldiqlari o'rnida ulkan band qurdirgan edi. U qaysi tumanda joylashgan?
A) *Kattaqo'rg'on* B) *O'ratepa* C) *G'uzor*
D) Nurota
837. 1.3-2 file-» 78 - 2 - - (702178)
Ashtarxoniylarning qaysi hukmdorlari o'z o'g'illarini qatl qildirgan?
A) *Imomqulixon, Abdulazizxon*
B) *Nodir Muhammad, Ubaydullaxon II*
C) *Vali Muhammad, Imomqulixon*
D) Subhonqulixon, Abulfayzxon
838. 1.3-2 file-» 78 - 2 - - (702179)
Ibrohimiy Buxoro xonligidan mustaqil, poytaxti Samarqand bo'lgan davlat tuzishga kirishib, qaysi hudud hokimlari bilan til biriktirgan?
A) *Karmana va Kesh*
B) *G'uzor va Qarshi*
C) Urgut va Miyonqol
D) *Termiz va Chag'oniyon*
839. 1.3-2 file-» 78 - 2 - - (702180)
Nodir Muhammad bilan Shoh Jahonning o'g'illari o'rtasidagi jang qayerda bo'lgan?
A) Maymana yo'lida
B) *Tahrirobod yaqinida*
C) *Qunduz shaharchasida*
D) *Murg'ob daryosi bo'yida*
840. 1.3-2 file-» 78 - 2 - - (702181)
Amir Shohmurodning soliq tizimida o'tkazgan islohoti to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.
A) *zakot solig'ini bir oz oshirdi*
B) *jizya solig'i bekor qilindi*
C) *ulamolardan olinadigan har qanday soliq va yig'imlar bekor qilindi*
D) boj va xirojdan tashqari barcha soliqlar kamaytirildi

841. 1.3-2 file-» 78 - 2 - - (702182)
Muhammad Rahimiy bo'ysunishni istamagan, markaziy hokimiyatga bo'ysunmaslikka uringan qabilalarga nisbatan qanday chora ko'rgan?
A) yashayotgan joyidan ko'chirib yuborgan
B) ularni bir-biriga gij-gijlab, dushman qilib qo'ygan
C) ulardan ikki barobar soliqlar undirilgan
D) qabila boshliqlariga sovg'a-salomlar berib, o'ziga og'dirib olgan
842. 1.3-2 file-» 78 - 2 - - (702183)
XIX asrda yozilgan "Bayoni ba'zi havodisoti Buxoro, Xo'qand va Qoshg'ar" asarining muallifini aniqlang.
A) Muhammadniyoz Nishotiy
B) Yaqub ibn Doniyol Buxoriy
C) Mirzo Shams Buxoriy
D) Mir Ma'sum Olamiyov
843. 1.3-2 file-» 78 - 2 - - (702184)
Elbarsxon hukmronligi davrida Xorazmga qaysi hududlar qo'shib olingan?
A) Saraxs, Orol, Mang'ishloq, Shimoliy Xuroson
B) Janubiy Dashti Qipchoq va Amudaryoning o'ng sohilidagi yerlar
C) Kirmon, Shimoliy Eron, Xuroson
D) Dehiston, Bolqon tog'lari, O'zboy
844. 1.3-2 file-» 78 - 2 - - (702185)
Xorazm aholisi Eron safaviylariga qarshi kurashib, mamlakat taxtiga Berka Sultonning o'g'li Elbarsxonni o'tqazishga qaror qilishadi. Bu paytda Elbarsxon qayerda edi?
A) Urganchda
B) Mang'ishloq yarim orolida
C) Shimoliy Erondagi Saraxsda
D) Dashti Qipchoqda
845. 1.3-2 file-» 78 - 2 - - (702186)
Arab Muhammadning o'g'illari Habash va Elbars Sultonlar kimlarga tayanib, otasiga qarshi isyon ko'taradilar?
A) Ataman Nachay boshliq Yoyiq kazaklariga
B) nayman va uyg'ur qabilasi boshliqlariga
C) Eron safaviylariga
D) Buxoro xonligiga
846. 1.3-2 file-» 78 - 2 - - (702187)
Qayerda bo'lgan jangda Nodirshoh Xiva xonligi qo'shinlarini butunlay tor-mor keltirdi?
A) Hazoraspeda B) Urganch yonida
C) Vazir yaqinida **D) Xonqada**
847. 1.3-2 file-» 78 - 2 - - (702188)
"Dili g'aroyib" asarining muallifi berilgan javobni aniqlang.
A) Yusuf Bayoniy
B) Hasanbek Rumlu
C) Xudoyberdi Avaz Muhammad
D) Herman Vamberi
848. 1.3-2 file-» 78 - 2 - - (702189)
Quyidagi qaysi omil qoraqalpoqlarni Eron shohi Nodirshoh hujumidan saqlab qolgan?
A) qoraqalpoqlarning Kichik juz xonligi tarkibiga kirganligi
B) qish mavsumining boshlanib qolishi va eronliklarning sahro yurishidan voz kechishi
C) qoraqalpoqlarning Rossiya imperiyasi fuqaroligiga o'tganligi
D) Eronda boshlangan qo'zg'olon va Nodirshohning o'z vataniga qaytib ketishi
849. 1.3-2 file-» 74 - 16 - - 1 (717035)
Ma'lumki, 1496-yilning iyun oyida Bobur Mirzo Samarqand shahrini egallash maqsadida ittifoqchilari bilan uni qamal qilishga tutinadi. Bobur Mirzo ushbu qamalni to'xtatishining asosiy sababini aniqlang.
A) qish yaqinlashib qolganligi tufayli ittifoqchi shahzodalar qamalni to'xtatib, yurtlariga qaytishga majbur bo'lganlar
B) Samarqand hokimi Boysunqur Mirzo Buxoro va Xorazm hukmdorlari bilan ittifoq tuzib, katta qo'shin chaqirgan edi
C) Bobur Mirzo va uning tog'asi Toshkent hokimi Sulton Mahmudxon o'rtasida kuchli ixtilof paydo bo'lgan edi
D) Samarqandda jangga o'rgatilgan 50 ta fil bo'lib, ular qamalni bartaraf etishga qodir edilar
850. 1.3-2 file-» 74 - 16 - - 1 (717036)
Shayboniyxonning davlatni iqtisodiy va siyosiy jihatdan mustahkamlash yo'lidagi dastlabki islohotini aniqlang.
A) davlat boshqaruvida suyurg'ol tizimining joriy etilishi
B) mamlakatda yer-suvning qaytadan taqsim qilinishi
C) mamlakat ichidagi ijtimoiy hayotning tartibga solinishi
D) pul tizimining tartibga solinishi

851. 1.3-2 file-» 74 - 16 - - 1 (717037)
Shayboniylar davrida xon va shahzodalar o'rtasidagi ichki munosabatlar masalasi bilan ...
A) *eshikog'aboshi lavozimidagi shaxs shug'ullangan.*
B) **xon yasovuli mansabida ishlagan amaldor shug'ullangan.**
C) *shug'ullangan amaldor ayg'oqchilar boshlig'i bo'lgan.*
D) *faqat qo'rchiboshi lavozimidagi shaxs shug'ullangan.*
852. 1.3-2 file-» 74 - 16 - - 1 (717038)
XVIII asr boshlarida Qo'qon xonligida minglar sulolasi hokimiyat tepasiga kelmasdan avval ...
A) *Sharqiy Turkiston o'zbeklari bilan qonli urushlar olib borilgan.*
B) *hokimiyatni Dashti Ashtdagi qipchoq qabilalari egallaganlar.*
C) *siyosiy parokandalikka barham berilib, tinch rivojlanish pallasi boshlangan.*
D) **hokimiyat Chust yaqinidagi Chodak xo'jalari qo'liga o'tdi.**
853. 1.3-2 file-» 74 - 16 - - 1 (717039)
XIX asr o'rtalarida Buxoro amirligi va Xiva xonligi o'rtasidagi talash yerlar joylashgan shaharlarni aniqlang.
A) *Ashxobod va Chorjo'y*
B) Chorjo'y va Marv C) *Andxud va Hirot*
D) *Hirot va Marv*
854. 1.3-2 file-» 77 - 3 - - 1 (717040)
Nima sababdan Abdullaxon II 1572-yilda boburiy Akbarshoh huzuriga o'z elchilarini yuborgan edi?
A) *o'sha davrda boburiylar Sharqdagi siyosiy hayotga sezilarli ta'sir o'tkazuvchi, qudratli davlat bo'lgani uchun*
B) *asosan iqtisodiy va madaniy aloqalarni yo'lga qo'yish uchun*
C) **shayboniylar safaviylarga qarshi kurashda boburiylar bilan birga harakat qilishga intilganliklari uchun**
D) *shayboniylar safaviylarni tobe etgach, boburiylarni ham o'zlariga bo'ysundirmoqchi bo'lganlari uchun*
855. 1.3-2 file-» 77 - 3 - - 1 (717041)
XVI asrning oxirlarida Buxoro va Hindiston o'rtasida ma'lum muddat sovuqlik tushishining sababi nimada edi?
A) *Akbarshoh safaviylar tomonida turib Abdullaxon II ga qarshi harakatlar olib borgan edi*
B) **Abdullaxon II ning o'g'li Abdulmo'min Akbarshohga maktub yo'llab, noma'qul shartlar qo'ygan edi**
C) *Akbarshoh Buxoroda shayboniylarga qarshi isyon uyushtirgan edi*
D) *Akbarshoh elchilari Abdullaxon II tomonidan qabul qilinmay, quvg'in qilingan edi*
856. 1.3-2 file-» 77 - 3 - - 1 (717042)
1598-yilda "Shifo ul-ilal" ("Kasalliklar shifosi") asari qaysi hukmdorning buyrug'iga binoan yozilgan edi?
A) *shayboniy Abdullaxon II*
B) *boburiy Akbarshoh*
C) *Xuroson hukmdori Abdulmo'min*
D) Toshkent hokimi Darvishxon
857. 1.3-2 file-» 77 - 3 - - 1 (717043)
Ashtarxoniy Nodir Muhammad davrida nima sababdan davlatchilik asoslari zaiflashgan edi?
A) *Nodir Muhammad olib borgan tinimsiz urushlar tufayli*
B) *asosiy viloyatlarni atrofidagi amirlar va beklarga bo'lib berganligi uchun*
C) *ichki va tashqi siyosatni vazirlarga topshirib qo'yganligi uchun*
D) **asosiy viloyatlarni o'g'illari va yaqin qarindoshlariga bo'lib berganligi uchun**
858. 1.3-2 file-» 77 - 3 - - 1 (717044)
1702-yil taxtga o'tirgan Ubaydullaxonning asosiy maqsadi ...
A) *pul islohoti o'tkazish edi.*
B) **siyosiy tarqoqlikni tugatishdan iborat edi.**
C) *tashqi siyosatni mustahkamlashdan iborat edi.*
D) *mamlakat sarhadlarini mumkin qadar kengaytirishdan iborat edi.*

859. 1.3-2 file-» 77 - 3 - - 1 (717045)
Ma'lumki, 1740-yilda Eron shohi Nodirshoh Buxoro xonligiga 2-marta yurish qiladi. Bunday sharoitda xonlikda xoinlik yuz beradi. Ushbu xoinlik qanday sodir bo'lganligini aniqlang.
- A) Samarqand hukmdori Muhammad Rahimbiy Nodirshoh tomoniga o'tib, unga Buxoro darvozalarini ochib beradi
B) Ashtarxoniy Abulfayzxonga qarshi saroy amirlari sui'iqasd uyushtiradilar
C) Abulfayzxon eng yaqin amirlarining barchasi Nodirshoh tomoniga o'tib ketadi
D) **Qarshi hukmdori Muhammad Hakimbiy Nodirshoh tomoniga o'tib ketadi**
860. 1.3-2 file-» 77 - 3 - - 1 (717046)
Buxoro amirligida mulk yerlarining bir qismi xususiy shaxslarning yerlari bo'lib, ularning bu yerlarga egalik qilishlari ...
- A) qo'shbegi tomonidan qattiq nazoratga olingan.
B) yirik yer egalari tomonidan hadya etilgan yerlar hisobiga vujudga kelgan.
C) **davlat xizmati bilan bog'liq bo'lmagan.**
D) shaxsan amir tomonidan qattiq nazorat qilingan.
861. 1.3-2 file-» 77 - 3 - - 1 (717047)
Buxoro amirligi davrida Samarqandda quyidagi qaysi madrasalar faoliyat ko'rsatgan edi?
1) Ulug'bek; 2) Mir Arab; 3) Fathulla qo'shbegi; 4) Sherdor; 5) Tillakori; 6) Xo'ja Ahror; 7) Baroqxon; 8) Abdulazizxon; 9) Shayboniyxon; 10) Xo'ja Abdulg'ofir; 11) Qozi Soqiy.
A) 1, 2, 3, 7, 8, 10, 11 B) 2, 4, 5, 6, 9, 10, 11
C) 1, 4, 5, 6, 9, 10, 11 D) 3, 4, 5, 8, 9, 10
862. 1.3-2 file-» 77 - 3 - - 1 (717048)
Ma'lumki, 1804-yil Marvda Amir Haydarga qarshi qo'zg'olon ko'tarildi. Qo'zg'olonga boshchilik qilgan Dinnosirbekning asosiy maqsadi nima edi?
- A) Xiva xoni Eltuzar yordamida Marv viloyatini egallash edi
B) **Xiva xoni Eltuzar yordamida oliy hokimiyatni egallash edi**
C) Amir Haydar soliqlarini bekor qilish va Marvdagi yer egaligi munosabatlarini o'zgartirish edi
D) Dinnosirbek adolatparvar inson bo'lib, barchaning teng huquqli bo'lishi tarafdori edi
863. 1.3-2 file-» 77 - 3 - - 1 (717049)
Buxoroning mang'it hukmdorlari ichki siyosatidagi asosiy maqsadi nimadan iborat edi?
- A) yirik zodagonlarning nufuzini oshiruvchi tayanch kuchlarni vujudga keltirish asosida markaziy hokimiyatni mustahkamlash
B) Qo'qon va Xiva xonliklari bilan do'stona aloqalarni yo'lga qo'yish
C) iqtisodiy islohotlar orqali markazlashgan davlat hokimiyatini mustahkamlash asosida xalq farovonligini ta'minlash
D) **markaziy hokimiyatni mustahkamlash, xalq ommasini qattiq itoatda tutish**
864. 1.3-2 file-» 77 - 3 - - 1 (717050)
Ma'lumki, Buxoro amirligida yashab ijod etgan tarixchi olim Ya'qub ibn Doniyolbiy Buxoriy "Gulshan ul-muluk" nomli ikki qismli asar yaratgan bo'lib, bu asarning ikkinchi qismida nima bayon etilgan?
- A) Buxoroning qadimgi tarixi, uning hukmdorlari shajarasi
B) **O'rta Osiyoning XVIII-XIX asr boshlaridagi tarixi**
C) Buxoro va Rossiya munosabatlarining boshlanishi
D) Buxoro, Xo'jand va Koshg'ardagi ayrim voqea-hodisalar
865. 1.3-2 file-» 77 - 3 - - 1 (717051)
Elbarsxon davrida Dashti Qipchoqdan Xorazmga ko'pgina qabilalarning ko'chib kelishi yanada kuchaydi. Natijada ...
- A) xonlik hukmdorlarining ijtimoiy tayanchiga putur yeta boshladi
B) Xiva xonlarining mamlakat hududini qo'shni davlatlar hisobiga kengaytirish imkoniyati yo'qola boshladi
C) **xonlik hukmdorlarining ijtimoiy tayanchi mustahkamlandi**
D) xon saroyidagi ichki nizolar yanada avjiga chiqdi
866. 1.3-2 file-» 77 - 3 - - 1 (717052)
Ma'lumki, XVI asrning oxirlaridan boshlab Xivaning Rossiya bilan savdo-sotiq aloqalari yo'lga qo'yila boshlandi. Xiva elchilari Rossiyaga asosan ...
- A) metall va zargarlik buyumlari olib borishgan.
B) zargarlik buyumlari va gazlamalar olib borishgan.
C) guruch va ziravorlar olib borishgan.
D) **gazlama va to'qilgan buyumlar olib borishgan.**

867. 1.3-2 file-» 77 - 3 - - 1 (717053)
1758-yilda Erondagi toj-taxt uchun o'zaro kurashlarda zend qabilasi g'alaba qozonadi. Oradan 12 yil o'tgach Xiva xonligida sodir bo'lgan voqeani aniqlang.
- A) Muhammad Amin inoqlik lavozimiga ko'tarildi
B) Xivada chetdan soxta xon chaqirish to'xtatildi
C) **Muhammad Amin inoq yovmutlarga qarshi kurashib, ularni Xorazmdan haydab chiqardi**
D) Xiva xoni Eltuzar Buxoroga yurish qildi
868. 1.3-2 file-» 77 - 3 - - 1 (717054)
XVIII asrning 60-yillaridan boshlab Xiva xonligida ...
- A) hokimiyat butunlay qabila boshliqlari qo'liga o'tdi.
B) ichki qabilaviy urushlarga butunlay barham berildi.
C) **hokimiyatni qo'ng'iroq qabilasi boshliqlari asta-sekin o'z qo'llariga ola boshladilar.**
D) chetdan soxta xon chaqirilishiga barham berildi.
869. 1.3-2 file-» 77 - 3 - - 1 (717055)
XVIII asr ikkinchi yarmi - XIX asr boshlarida Xiva xonligi shaharlarida hunarmandchilik, ichki va tashqi savdning o'sishiga sabab bo'lgan omilni aniqlang.
- A) **katta ko'lamdagi sug'orish inshootlarining tiklanishi hamda yangilarining bunyod etilishi ishlab chiqaruvchi kuchlarning o'sishiga sabab bo'lgan edi**
B) "Majburiyatlar akti" shartnomasining imzolanishi shahar hayotiga ijobiy ta'sir etgan edi
C) Buxoro xonligi orqali Eron, Afg'oniston va Turkiya bilan olib borilgan savdo-sotiqning rivoji sabab bo'lgan edi
D) yersiz qolgan qishloq aholisining shaharlarga borish imkoniyati katta bo'lib, ishlab chiqaruvchi kuchlar o'sishiga asos bo'lgan edi
870. 1.3-2 file-» 77 - 3 - - 1 (717056)
Shayboniy Ubaydullaxon qanday taxallus bilan qaysi tillarda ijod qilgan?
- A) "Ubayiy" taxallusida fors, arab, tojik va turkiy tillarda
B) **"Ubaydiy" taxallusida o'zbek, fors, arab tillarida**
C) "Ubaydulla" taxallusida o'zbek, fors va arab tillarida
D) "Ubaydulla" taxallusida fors-tojik, arab va turkiy tillarda
871. 1.3-2 file-» 77 - 3 - - 1 (717057)
Muhammad Shayboniyning Amir Temur davlati shimoliy chegaralarida noiblik qilayotgan Mazid Tarxon xizmatidan uzoqlashtirilishiga sabab nima va u kimning huzuriga jo'natib yuborildi?
- A) **Mazid Tarxon Shayboniy kelajakda o'z hokimiyatiga xavf solishini tushunib yetdi va uni Buxoroga, Darvesh Muhammad Tarxon ixtiyoriga yubordi**
B) kelajakda hokimiyatiga xavf solishini tushunib yetgan Mazid Tarxon Shayboniy Dashti Qipchoqqa, Qorachabek huzuriga jo'natdi
C) kelajakda hokimiyatiga xavf solishini tushunib yetgan Mazid Tarxon Shayboniy Dashti Qipchoqqa, otasi Shohbudog' Sulton huzuriga yubordi
D) Mazid Tarxon o'ziga qarshi fitna uyushtirishidan qo'rqib Shayboniy Samarqandga jo'natdi
872. 1.3-2 file-» 77 - 3 - - 1 (717058)
Muhammad Shayboniyxon topshirig'iga ko'ra unga atab tarixiy asar yozgan tarixchilarni aniqlang.
- A) Abdulloh ibn Muhammad, ibn Ali Nasrulloh, Kamoliddin Binoiy
B) Sultonali Samarqandiy, Kamoliddin Binoiy, Mulla Solih
C) **Kamoliddin Binoiy, Mulla Shodiy, Muhammad Solih, Fazlulloh ibn Ro'zbehxon Isfahoniy**
D) Hofiz Tanish Buxoriy, Kamoliddin Binoiy, Sultonali Samarqandiy
873. 1.3-3 file-» 77 - 3 - - (702190)
So'nggi ashtarxoniy Abulfayzxon nima sababdan Muhammad Rahimbiyga bosh vazirlik lavozimini berishga majbur bo'lgan edi?
- A) Eron shohi Nodirshoh o'tkazgan tazyiq tufayli
B) ashtarxoniy sulolasidan taxtga o'tiradigan birorta ham voris qolmaganligi sababli
C) Nodirshohdan madad olgan Muhammad Rahimbiy amalda butun xonlikni boshqarish imkoniga egaligi sababli
D) **Muhammad Rahimbiy o'zining muntazam qo'shinga egaligidan foydalanib, alohida mavqega da'vogarlik qila boshlagani uchun**
874. 1.3-3 file-» 77 - 3 - - (702191)
Abdullaxon II Hindistonga o'z elchilarini yuborgan yillar to'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang.
- A) 1572, 1584, 1586-yillar
B) 1572, 1577, 1585-yillar
C) 1572, 1576, 1587-yillar
D) 1572, 1575, 1585-yillar

875. 1.3-3 file-» 78 - 2 - - (702192)
Doniyolbiy davrida qaysi beklklarning Buxoro amirligiga bo'ysunmaslik harakati kuchaydi?
1) Shahrisabz; 2) Balx; 3) Hisor; 4) Nurota;
5) Ko'lob; 6) O'ratepa; 7) Miyonqol; 8) Boysun
A) 2, 3, 5, 6 B) 1, 2, 4, 7 C) 3, 5, 7, 8
D) 1, 4, 6, 8
876. 1.3-3 file-» 78 - 2 - - (702193)
Quyidagi mualliflar va ularning asarlari to'g'ri ko'rsatilgan javob variantini aniqlang.
1) Ajiniyoz; 2) Berdaq; 3) Jiyen Jirov
a) "Bo'zatov"; b) "Darbadar el"; c) "Avlodlar".
A) 1-a, 2-c, 3-b B) 1-a, 2-b, 3-c
C) 1-b, 2-a, 3-c D) 1-c, 2-a, 3-b
877. 1.3-3 file-» 78 - 2 - - (702194)
Quyidagi qaysi asar 1822-1848-yillar tarixi haqida ma'lumot beradi?
A) "Tarixi muhojiron"
B) "Tavorixi manzuma"
C) "Tarixi jahonnamoy"
D) "Muntaxab ut-tavorix"
878. 1.3-3 file-» 78 - 2 - - (702195)
Quyidagi qaysi madrasalar bir yilda bunyod etilgan?
A) *Norbo'tabiy, Haqquli mingboshi*
B) Pirmuhammad yasovul, Mingoyim
C) *Hakim To'ra, Oxund devonbegi, Mohlaroyim*
D) *Xo'jabek madrasasi, Madrasayi Kamol qozi, Madrasayi Buzrukxoja*
879. 1.3-3 file-» 78 - 2 - - (702196)
Qo'qondagi Norbo'tabiy madrasasi xalq orasida qanday nom bilan mashhur edi?
A) *Madrasayi Jome*
B) *Dahmayi Jahon*
C) Madrasayi Mir
D) *Madrasayi Tunqotar*
880. 1.3-3 file-» 78 - 2 - - (702197)
Muhammad Alixon Sharqiy Turkistonliklarni Xitoyga qarshi qo'llab-quvvatlash maqsadida ular ixtiyoriga kim boshchiligida qo'shin jo'natgan edi?
A) *Ibrohim dodxoh* B) *Haqquli*
C) *Muhammadbek* D) *Hakim To'ra*
881. 1.3-3 file-» 78 - 2 - - (702198)
Pyotr I tomonidan O'rta Osiyoga yuborilgan Ivan Buxgols ekspeditsiyasi qayerda istehkom qurgan edi?
A) Yamishchev ko'lida
B) *Tobol daryosi bo'yida*
C) *Yorkentda*
D) *Irtish daryosi o'rta oqimida*
882. 1.3-3 file-» 78 - 2 - - (702199)
Ivan Buxgols ekspeditsiyasi nima sababdan muvaffaqiyatsizlikka uchragan?
A) *qishning erta kirganligi va oziq-ovqat zahiralarning tugaganligi*
B) qalmoqlar hujumiga uchrashi
C) *ko'chmanchi qozoqlarning tez-tez uyushtirib turgan hujumlari*
D) *Xiva xonining tashabbusi bilan ekspeditsiya vakillarining qirib tashlanishi*
883. 1.3-3 file-» 2 - 1 - - (702200)
XIII asr boshida Dashti Qipchoqni zabt etgan mo'g'ul qabilalarining keyingi taqdiri qanday kechdi?
A) *mo'g'ullarning siyosiy ta'siri susaygach, ular o'z vataniga qaytib ketdilar*
B) Dashti Qipchoqning mahalliy turk urug'lari tarkibiga singib ketganlar
C) *shu yerda qolib o'z etnik madaniyati va nomini saqlab qolishga erishganlar*
D) *Dashti Qipchoqda paydo bo'lgan davlatlar boshqaruvini o'z qo'llariga olganlar*
884. 1.3-3 file-» 2 - 1 - - (702201)
Shayboniy Ubaydullaxon tomonidan amalga oshirilgan buyuk xizmatlar to'g'ri keltirilgan javob variantini aniqlang.
1) *Movarounnahrni qizilboshlarning harbiy-siyosiy tazyiqidan saqlab qoldi;*
2) *Davlatning Shayboniyxon davridagi sarhadlarini qayta tiklashga erishdi;*
3) *Buxoroning markaz sifatidagi nufuzi har tomonlama oshishiga erishdi;*
4) *Mamlakat poytaxtini Buxoro shahridan Samarqand shahriga ko'chirdi;*
5) *Mamlakat ichkarisidagi o'zaro kurash va tarqoqlikka barham berdi;*
6) *Xurosondan qizilboshlarni to'liq haydab chiqishga musharraf bo'ldi.*
A) 1, 3, 5 B) 2, 4, 6 C) 1, 3, 4
D) 2, 5, 6

885. 1.3-3 file-» 77 - 3 - - 1 (717059)
Quyidagilar orasidan bir yilda sodir bo'lgan voqealar to'g'ri berilgan javobni belgilang.
A) Muhammad Shayboniyxon va Xristofor Kolumbning vafoti
B) Zahiriddin Muhammad Boburning shayboniylardan yengilishi va Amerigo Vesputchining vafoti
C) Muhammad Shayboniyning Toshkentni egallashi va Amerikaning kashf etilishi
D) Akbarshohning taxtga o'tirishi va Meksika mustaqilligining e'lon qilinishi
886. 1.3-3 file-» 77 - 3 - - 1 (717060)
Ma'lumki, 1601-yilda Jonibek Sultonning o'g'li Boqimuhammad Buxoro taxtiga o'tirgan edi. Oradan yuz yil o'tgach jahon tarixida yuz bergan voqeani aniqlang.
A) Xitoyda ichki siyosiy kuchlarning ko'p yillik g'alayonlari boshlandi
B) Angliyada davlat to'ntarishi bo'lib o'tdi
C) Brandenburg knyazligi o'rniga Prussiya qirolligi tashkil topdi
D) Amerikada inglizlar tomonidan Filadelfiya shahriga asos solindi
887. 1.3-3 file-» 77 - 3 - - 1 (717061)
Ma'lumki, 1652-yilda Buxoroda Abdulazizxon tomonidan qo'sh imoratli madrasa bunyod etiladi. Oradan ikki yil o'tgach jahon tarixida qanday voqea sodir bo'lgan edi?
A) Ingliz Qo'shinlari Bengaliyani bosib oldi
B) Koreya Xitoyning vassaliga aylandi
C) Ukraina va Sharqiy Belorussiya Rossiyaga qo'shib olindi
D) Yaponiyada xristian dinini taqiqlovchi qonun chiqdi
888. 1.3-3 file-» 77 - 3 - - 1 (717062)
Quyidagi qaysi voqealar bir yilda sodir bo'lgan?
A) Miyonqolda Amir Haydarga qarshi qo'zg'olon ko'tarildi, Buyuk Britaniyada dunyoda birinchi temir yo'l qurildi
B) Leon to'quvchilari qo'zg'olon ko'tardi, Vena kongressi bo'lib o'tdi
C) Amir Haydar Yangiqo'rg'on va Chelakni egalladi, Britaniya parlamenti ish tashlashda qatnashishni taqiqlovchi qonun qabul qildi
D) AQSHda sanoat inqirozi boshlandi, Amir Nasrullo taxtga o'tirdi
889. 1.3-3 file-» 77 - 3 - - 1 (717063)
Quyidagi qaysi voqealar aynan bir yilda bo'lib o'tgan?
A) Shimoliy Xurosonda joylashgan takya qabilasi Xiva xonligiga qaramligini tan oldi, Leypsig ostonasida Yevropaning ittifoqchi davlatlari bilan Fransiya o'rtasida hal qiluvchi jang bo'lib o'tdi
B) Londonda ishchilarning "Umumiy saylov huquqi uchun kurash Assotsiatsiyasi" tuzildi, Muhammad Amin inoq hukmronligi boshlandi
C) "Shimoliy Germaniya Ittifoqi" tuzildi, Toshkent hokimi Yunusxo'ja vafot etdi
D) 24 kishidan iborat Toshkent savdo karvoni Semipalatinsk shahriga keldi, Nepal davlatiga Sin sulolasi vassalligi majburan tan oldirildi
890. 1.4-1 file-» 73 - 1 - - (225017)
Қўқон хонлигида қайси сулола вакиллари ҳукмронлик қилишган?
A) Манғит B) Қўнғирот C) Минг
D) Найман
891. 1.4-1 file-» 74 - 5 - - (235536)
XIX асрнинг ўрталарида Бухоро амирлигида марказий ҳокимиятни ...
A) девонбеги бошқарарди
B) амир бошқарарди
C) бош қушбеги бошқарарди
D) беклар бошқарарди
892. 1.4-1 file-» 74 - 5 - - (235537)
XIX асрнинг ўрталарида Бухоро амирлигида раисикалон қандай вазифани бажарган?
A) бош судя вазифасини
B) шаҳар судяси вазифасини
C) шаҳарда тартиб сақлаш вазифасини
D) солиқларни тартибга солиш вазифасини
893. 1.4-1 file-» 74 - 5 - - (235538)
XVIII асрнинг биринчи ярмида Фарғона мулки ...
A) бир неча мулкларга бўлиниб, парчаланиб кетди
B) асосан қипчоқ қабилалари қўл остида эди
C) Бухоро хонлиги таркибидан ажралиб чиқди
D) ички ғалаёнлар марказига айланди

894. 1.4-1 file-» 74 - 5 - - (235541)
XIX асрнинг ўрталарида Хива хонлигидаги
”бегор” нима?
А) хўжаликдаги асосий солиқ
В) 12 кунлик давлат меҳнат мажбурияти
С) хунармандлар тўлаши шарт бўлган солиқ тури
Д) кундалик савдо учун бозорчилардан олинадиган солиқ
895. 1.4-1 file-» 74 - 5 - - (235546)
”Омонгелди” тарихий достонининг муаллифини аниқланг.
А) Мунис В) Ажиниёз **С) Бердақ**
Д) Иброҳим Кунхўжа
896. 1.4-1 file-» 74 - 5 - - (235553)
Қуйидаги қайси тарихий воқелик Ўзбекистон Республикаси Матбуотчилар куни нишонланишига асос бўлган?
А) ”Тараққий” газетасининг биринчи сони чиқиши
В) ”Туркистон вилоятининг газети” чиқа бошлаши
С) ”Таржимон” журналининг чоп этилиши
Д) Илк босма тўплам ”Тақвим”нинг чоп этилиши
897. 1.4-1 file-» 74 - 5 - - (235556)
1875 йил 22 сентябрда Насриддинбек ...
А) Марғилонда Кауфман билан шартнома имзолади
В) Кауфман қўшинларига қақшатқич зарба берди
С) Андижонни руслардан тортиб олди
Д) Қўқон хонлигида бошқарув ислоҳоти ўтказди
898. 1.4-1 file-» 74 - 5 - - (235557)
Маълумки, 1876 йилда Қўқон хонлиги тугатилиб унинг ўрнига Фарғона вилояти ташкил этилган. Бу вилоятнинг маркази қайси шаҳар бўлган?
А) Андижон **В) Янги Марғилон** С) Қўқон
Д) Наманган
899. 1.4-1 file-» 74 - 5 - - (235560)
Маълумки, 1880 йил июнида Туркистонда биринчи темир йўл қурилган. Бу темир йўлни қуришдан мақсад нима бўлган?
А) Красноводскдан Қизиларватга артиллерияни ташиб олиб бориш
В) Каспийорти вилояти бойликларини марказга етказиш
С) Афғонистон чегараларига чиқиш имкониятига эга бўлиш
Д) Каспийорти вилоятини Оренбург билан боғлаш
900. 1.4-1 file-» 74 - 5 - - (235565)
Қорақалпоқ аёлининг кумушдан тайёрланган оғир кўкрак беаги ... деб аталган.
А) қўш билезик В) ўнгирманшак
С) савкала **Д) ҳайкел**
901. 1.4-1 file-» 74 - 5 - - (235567)
XIX аср охирларида Бухоро амирлиги лашкарлари шошилич йиғилувчи, ёмон таълим кўрган ва қоқоқ ҳарбий қуруллар билан таъминланган ...
А) чорвадорлардан иборат эди
В) деҳқонлардан иборат эди
С) хунармандлардан иборат эди
Д) ҳаммоллардан иборат эди
902. 1.4-1 file-» 74 - 5 - - (235569)
1885 йилдаги Восеъ қўзғолони қаерда бўлиб ўтган?
А) Китоб беклигида В) Бойсун беклигида
С) Каттақўрғон беклигида
Д) Балжувон беклигида
903. 1.4-1 file-» 74 - 5 - - (235571)
1888 йилда Бухоро амирлигининг қайси беклигида қўзғолон бўлиб ўтган?
А) Балжувон беклигида
В) Қўлоб беклигида С) Денов беклигида
Д) Ғузор беклигида
904. 1.4-1 file-» 74 - 5 - - (235577)
XIX аср иккинчи ярмида Хива хонлигида қашшоқ дарвешлар қандай жамоага бирлашганлар?
А) хоннинг махсус одами назорат қиладиган дарвешлар жамоасига
В) қозикалон бошқарадиган дарвешона жамоасига
С) қаландарлар жамоасига
Д) бундай жамоа бўлмаган

905. 1.4-1 file-» 74 - 5 - - (235583)
1896 йилда Тошкентда ...
A) *биринчи рус-тузем мактаби очилди*
B) *биринчи электростанция ишга тушди*
C) **биринчи гимназия очилди**
D) *биринчи театр очилди*
906. 1.4-1 file-» 74 - 5 - - (235584)
Ўрта Осиё олимлар жамияти қачон тузилган?
A) 1868 йили B) 1869 йили C) 1870 йили
D) 1871 йили
907. 1.4-1 file-» 74 - 5 - - (235585)
Биринчи марта Помир-Олой водийсини ўрганган, "Туркистонга саёҳат" асарини ёзган олимни аниқланг.
A) А.П. Федченко B) И.В. Мушкетов
C) В.П. Наливкин D) Н.И. Веселовский
